

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQAVIY TARBIYANING MAQSAD VA VAZIFALARI

Axmedov Baxodirxon Sayfiddinovich,
Namangan davlat pedagogika instituti
katta o'qituvchisi

e-mail: bahodirxonaxmedov184@gmail.com,

tel: +99891-349-70-30

Annotatsiya: Bolalarni oddiy musiqa tushunchalari bilan tanishtirish, musiqa tinglash, ashula aytish, musiqa bilan harakat qilish, raqsga tushish va bolalarning oddiy musiqa asboblarida kuy chalish ko'nikmalarini shakllantirish va ijodiy qobiliyatini o'stirib borish. Bolalar ovozi asrab tarbiyalash, ashula aytishning dastlabki ko'nikmalarini hosil etish, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o'rgatish. Musiqa asaralaridan ta'sirlanish, shu asosda bolalarda musiqaviy did va badiiy muhokama yuritish malakalarini rivojlantirish.

Tayanch iboralar: Bolalar ovozi, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylash, musiqa tinglash, ashula aytish, musiqa bilan harakat qilish, raqsga tushish, nota savodi, musiqa tovushlarining grafik usulda ifodalanishi — nota yozuvi, musiqaviy o'yin va postanovkalar, raqslar bolalarda ritm tuyg'usi, chaqqonlik va harakatchanlik.

ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ МУЗЫКАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация: Познакомить детей с простыми музыкальными понятиями, сформировать навыки слушания музыки, пения, движения под музыку, танцев и игры на простых музыкальных инструментах, а также развивать творческие способности детей. Сохранение и развитие детского голоса, формирование начальных навыков пения, обучение пению песен просто, плавно, свободно, естественно и выразительно. Воспитание музыкального опыта и на этой основе развитие музыкального вкуса и навыков художественного обсуждения.

Ключевые фразы: Детские голоса, пение песен просто, плавно, свободно, естественно и выразительно, слушание музыки, пение, движение под музыку, танцы, музыкальная грамота, графическое изображение музыкальных звуков – нотная грамота, музыкальные игры и представления, танцы, чувство ритма, ловкость и подвижность детей.

GOALS AND OBJECTIVES OF MUSICAL EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Abstract: To introduce children to simple musical concepts, to form the skills of listening to music, singing, moving with music, dancing, and playing simple musical

instruments, and to develop children's creative abilities. To preserve and educate children's voices, to form the initial skills of singing, to teach them to sing songs simply, fluently, freely, naturally, and expressively. To be influenced by musical works, and on this basis to develop children's musical taste and artistic discussion skills.

Key phrases: *Children's voices, singing songs simply, fluently, freely, naturally, and expressively, listening to music, singing, moving with music, dancing, musical literacy, graphic representation of musical sounds - musical notation, musical games and performances, dances, a sense of rhythm, agility, and mobility in children.*

KIRISH

Maktabgacha ta'lim — bu inson shaxsining shakllanishida eng muhim va mas'uliyatli bosqichlardan biridir. Aynan shu davrda bolalarning dunyoni idrok etish qobiliyati, estetik didi, hissiy sezgirligi hamda ijtimoiy faolligi jadal rivojlanadi. Shu boisdan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqiy tarbiya jarayoni alohida o'rin tutadi. Musiqa inson ruhiyatiga bevosita ta'sir etuvchi san'at turi sifatida bolalarda go'zallikka mehr, badiiy did, hissiy barqarorlik va ijodkorlik sifatlarini shakllantiradi.

Musiqiy tarbiya jarayoni orqali bola nafaqat qo'shiqlarni kuylash yoki musiqani tinglashni o'rganadi, balki u o'z his-tuyg'ularini ifoda etish, o'zgalarning hislarini tushunish, jamoada faol ishtirok etish, ritmni sezish va harakatlar orqali musiqani his etish malakalarini egallaydi. Shu jihatdan qaraganda, musiqiy tarbiya maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishiga — estetik, aqliy, axloqiy, jismoniy va ijtimoiy jihatdan kamol topishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanida musiqaning bolaning shaxsiy rivojlanishidagi o'рни chuqur tadqiq qilinmoqda. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, musiqiy faoliyat bola miyasining chap va o'ng yarimsharlari o'rtasidagi muvozanatni rivojlantiradi, e'tibor, xotira, tafakkur va ijodiy tasavvurni mustahkamlaydi. Shu sababli musiqiy tarbiya nafaqat estetik yo'nalishdagi faoliyat, balki bola tafakkurining kompleks rivojlanish omili sifatida qaraladi.

Maktabgacha ta'lim tizimida musiqiy tarbiyaning asosiy maqsadi — bolalarda musiqaga mehr uyg'otish, ularning estetik dunyoqarashini shakllantirish, musiqiy idrokni rivojlantirish va badiiy ijodkorlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarishdan iboratdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun musiqiy tarbiyaning aniq

vazifalari belgilangan bo'lib, ular bolalarda musiqiy eshituvni rivojlantirish, qo'shiq kuylash, raqs va ritmik harakatlarni bajarish, shuningdek, milliy va jahon musiqiy merosiga hurmatni singdirishga yo'naltirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maktabgacha ta'lim tizimida musiqiy tarbiya masalalari bo'yicha ilmiy-pedagogik tadqiqotlar nafaqat O'zbekiston, balki xorijiy mamlakatlarda ham keng yoritilgan. Xususan, L.S. Vygotskiy, B.M. Teplov, N.A. Vetlugina, D.B. Kabalevskiy, K. Orf, Z. Kodaly kabi olimlarning asarlarida musiqaning bola psixikasi va shaxsiy rivojlanishiga ta'siri, musiqiy idrokning bosqichma-bosqich shakllanishi, estetik tarbiyaning o'quv-tarbiyaviy jarayondagi o'rni chuqur tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlari musiqiy faoliyatning bolaning hissiy sohasini rivojlantirishdagi o'rni, musiqiy qobiliyatlarning tabiiy va ijtimoiy omillar orqali shakllanishi hamda musiqaning kognitiv jarayonlarga ta'siri kabi jihatlarni asoslab bergan.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar orasida G. Abdurahmonova, N. Jo'rayeva, D. Xoliqova, M. Abdurahmonova, Sh. Shukurova kabi pedagog va psixologlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar maktabgacha ta'limda musiqiy tarbiyaning o'ziga xos jihatlari, milliy qadriyatlar asosida musiqiy tarbiyani yo'lga qo'yish, bolalarning estetik didini milliy kuy va qo'shiqlar orqali rivojlantirish masalalarini o'rganishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotlarda musiqiy tarbiyaning ta'lim jarayonidagi tizimliliigi, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, musiqiy faoliyatning o'yin, qo'shiq, raqs va tinglash jarayonlari orqali integratsiyalashganligi ta'kidlangan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, musiqiy tarbiya faqat san'at yo'nalishidagi faoliyat sifatida emas, balki bolaning emotsional, ijtimoiy va intellektual rivojlanishining muhim omili sifatida qaraladi. Shu boisdan, musiqiy tarbiya metodikasi o'zida pedagogika, psixologiya, musiqashunoslik va san'atshunoslik fanlarining o'zaro uyg'unligini mujassamlashtiradi.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faoliyatga asoslangan yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv hamda estetik tarbiya nazariyalariga tayangan holda tahlil olib boriladi. Shuningdek, tadqiqotda ilmiy izlanishning tizimli, taqqoslama va tahliliy metodlari qo'llaniladi. Mazkur

yondashuvlar yordamida musiqiy tarbiya jarayonining mazmuni, shakl va metodlari pedagogik nuqtai nazardan o'rganiladi.

Tahlil jarayonida musiqiy tarbiyaning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillar — bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, milliy va jahon musiqiy namunalaridan samarali foydalanish, interfaol metodlardan (o'yin, ijodiy topshiriqlar, musiqiy harakat mashqlari) foydalanish, pedagogning badiiy va musiqiy savodxonligini oshirish kabi yo'nalishlar asos qilib olinadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa ta'limiga asos solinadi, shuning uchun musiqa rahbari ayniqsa o'qitish metodikasini yaxshi bilishi, bog'cha yoshidagi kichik bolalarning yosh va individual xususiyatlarini, ularning musiqa va qo'shiqchilik imkoniyatlarini chuqur bilishi zarur.

Musiqa ta'limini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin. Birinchisi, tayyorlov bosqichi. Bundan ko'zlanadigan asosiy maqsad — bolalarning musiqa o'quvini o'stirishdir. Shu vaqt mobaynida bolalar musiqa tovushlarining baland-pastligi va cho'zimi kabi o'ziga xos xususiyatlarni ajrata bilishga o'rganishlari va nota yozuvini o'rganishga tayyorlanishlari kerak. Ikkinchi bosqichda nota savodi, ya'ni bevosita musiqa tovushlarining grafik usulda ifodalanishi — nota yozuvini o'rganishga kirishiladi.

Musiqa mashg'ulotlari jarayonida bola hayotiy voqelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bolalar yoshiga mos musiqa asarlari kichkintoylarda unutilmas taassurot qoldiradi, ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Bog'cha sharoitidagi musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. Ashula aytish usuli, janrdagi musiqa asarlari, xususan, syujetli cholg'u pyesalarini tinglash, musiqaviy o'yinlar bilan shug'ullanish va raqsga tushish jarayonida musiqa mashg'ulotlari ko'pincha badiiy so'z bilan belgilanadi. Bola badiiy obrazlarni yorqin tasavvur etishi va chuqur idrok qila olishi uchun tasviriy san'at asarlaridan unumli foydalaniladi. Turli metodlardan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqa mashg'ulotlari kichkintoylarda badiiy estetik zavq uyg'otadi, ularning his-tuyg'ularini rivojlantiradi, ijodiy fikri va nutqini o'stiradi. Bundan tashqari, musiqaviy o'yin va postanovkalar, raqslar bolalarda ritm tuyg'usi, chaqqonlik va

harakatchanlik malakalarini rivojlantiradi hamda qomatning to'g'ri o'sishiga yordam beradi. Musiqa o'quv qobiliyati asosan quyidagi musiqa o'quv turlaridan iborat bo'ladi: musiqaviy o'quvi, musiqaviy tovushlarning baland-pastligini his etish qobiliyati, tembr o'quvi (musiqa tovushlarining bir-biridan farq qiladigan, o'ziga xos jihatlarini ajrata bilish qobiliyati), ritm tuyg'usi va musiqa xotirasi.

Bolalar bog'chasida olib boriladigan musiqa tarbiyasining asosiy maqsad va vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Bolalarning musiqaga qiziqishini oshirish va uni sevishtirishga o'rgatish.
2. Musiqa asarlari bilan tanishtirish jarayonida bolalarda emotsional his-tuyg'ularini hosil etish yo'li bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitib borish.
3. Bolalarni oddiy musiqa tushunchalari bilan tanishtirish, musiqa tinglash, ashula aytish, musiqa bilan harakat qilish, raqsga tushish va bolalarning oddiy musiqa asboblari kuy chalish ko'nikmalarini shakllantirish va ijodiy qobiliyatini o'stirib borish.
4. Bolalar ovozini asrab tarbiyalash, ashula aytishning dastlabki ko'nikmalarini hosil etish, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o'rgatish.
5. Musiqa asarlaridan ta'sirlanish, shu asosda bolalarda musiqaviy did va badiiy muhokama yuritish malakalarini rivojlantirish.
6. Turli musiqa mashg'ulotlari jarayonida improvizatsiya qilish musiqadagi badiiy obrazni o'yin va xor ovozlar vositasida ifoda etish, ma'lum musiqaviy mavzuga yangi o'yin o'ylab topish.
7. Musiqaviy tarbiya mashg'ulotlarini bog'cha hayoti bilan bog'lash, bog'chada o'tkaziladigan turli mashg'ulotlarda va marosimlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlardan keng foydalanish, turli ertaliklar, konsertlar uyishtirish vositasida musiqa kundalik hayotimizning ajralmas yo'ldoshi ekanligi haqida bolalarda tushuncha hosil qilish.

XULOSA

Turli metodlardan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqa mashg'ulotlari kichikintoylarda badiiy estetik zavq uyg'otadi, ularning his-tuyg'ularini

rivojlantiradi, ijodiy fikri va nutqini o'stiradi. Bundan tashqari, musiqaviy o'yin va postanovkalar, raqslar bolalarda ritm tuyg'usi, chaqqonlik va harakatchanlik malakalarini rivojlantiradi hamda qomatning to'g'ri o'sishiga yordam beradi. Musiqa o'quv qobiliyati asosan quyidagi musiqa o'quv turlaridan iborat bo'ladi: musiqaviy o'quvi, musiqaviy tovushlarning baland-pastligini his etish qobiliyati, tembr o'quvi (musiqa tovushlarining bir-biridan farq qiladigan, o'ziga xos jihatlarini ajrata bilish qobiliyati), ritm tuyg'usi va musiqa xotirasi. Shu ishlarni amalga oshirish uchun har bir mashg'ulotni talablar darajasida sidqidildan bajarishni taqozo etadi. Bunda adabiyot, darsliklardan unumli foydalanish kerak.

Foydalanilgan adaboyotlar:

3. Mark Feezell. Music Theory Fundamentals - High-Yield Music theory, vol. 1. Copyright © 2011 All Rights Reserved.
4. Shokirxanov, B., & Axmedova, E. Z. (2025). RUBOB PRIMANING TUZILISHI VA IJROCHILIK HOLATI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 438-440.
5. Botirxonovich, S. B. (2025). MUSIQA NAZARIYASI FANIDAN TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH METODIKASI. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, 13(7), 139-150.
6. Botirkhanovich, Shokirkhanov Bakhtiyorxon. "The Structure of Kashkar Rubab, And Methods of Their Execution." *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN* 5.1 (2024): 19-22.
7. Sayfiddinovich, A. B. (2025). Dirijorlik fani haqida. *Research Focus*, 4(Special Issue 3), 222-233.
8. Axmedov, B., & To'lanova, M. (2025). RITMIK CHIZGILAR VA TUZILISHLAR HAMDA BADIY OBRAZLAR YARATISH ORQALI BOLALAR TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 447-450.
9. Toshmatov, G. (2025). YEVROPA ECTS KREDIT-MODUL TIZIMIDA MUSTAQIL TA'LIM VA UNGA O'QITUVCHINING RAHBARLIK FAOLIYATI. *Research Focus*, 4(3), 81-84.
10. Toshmatov, G. U., & Sharopova, S. D. (2025). MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARI ORQALI MUSIQA TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODUKASI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 491-493.
11. Toshmatov, G. (2025). KREDIT MODUL TIZMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM BO'YICHA KREATIV FAOLIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Research Focus*, 4(Special Issue 3), 244-252.
12. Olimjonovich, T. G. (2024). Development Of Knowledge Of Students Through Independent Study On The Basis Of A Systematic Approach. *Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research*, 2(11), 19-24.
13. Axmedov, B., & Muxammatova, G. (2025). MUSIQA MASHG'ULOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATINI LOYIHALASHTIRISH VA ULARNING RIVOJLANISHINI DIAGNOSTIK TAHLIL QILISH. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 371-375.

14. Shokirxanov, B., & Zarifxonova, D. (2025). MUSIQA TA'LIMIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA KO'P OVOZLI IJRONING DIDAKTIK AHAMIYATI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 510-512.
15. Axmedov, B. (2024). AN'ANAVIY MUSIQA IJODIYOTINING AKUSTIKA VA LAD XUSUSIYATLARI. *Nordic_Press*, 5(0005).